

Po'latova Munisa Botir qizi

Chirchiq davlat pedogogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zga tili guruhlarda rus tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolamni yoritish jarayonida shoirning g'azzallari tahlil qilinadi. Shu bilan birga mumtoz adabiyotimiz haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, mumtoz adabiyot, g'azal, shoir, davlat arbobi, adabiyot.*

АННОТАЦИЯ: *в процессе освещения моей статьи будут проанализированы Газели поэта. В то же время дается информация о нашей классической литературе.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабури, классическая литература, Газель, поэт, государственный деятель, литература.*

Abstract: *In the process of covering this article, the poet's Ghazals are analyzed. At the same time, information about our classical literature is given.*

Keys words: *Zahiriddin Muhammad Babur, classical literature, ghazal, poet, statesman, literature.*

Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), «Xatgi Boburiy», "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Badiiy ijod uning nodir namunalarini yaratuvchi ma'lum bir xalqning e'tiqodiy qarashlari majmuasidan bahramand bo'ladi. Shu ma'noda o'sha xalq dunyo qarashi ma'rifiy olami va ma'naviyatini badiiy aks ettiradi. Shunga ko'ra, alohida xalqlar nomlari bilan ataluvchi adabiyotlar vujudga keladi. Xalqimiz ma'naviy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi esa o'zbek adabiyotidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'tmishni, fanlar tarixi adabiy merosni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratildi. Milliy o'zlikni anglash, milliy mafkura, ma'naviyat, ma'rifat kabilar Davlat dasturidagi dolzarb masalalar

sirasidan ustuvor yo'nalish sifatida joy oldi. Shu jihatdan mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov hozirjavoblik va donolik bilan aytgan quydagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi:

"Biz ma'naviyat qadriyatlarini tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz".

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. Masalan, buyuk shoirning "Lola" g'azalini tahlil qilamiz.

Lola g'azali

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola.

Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,

Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.

Lola, lola

Mehru vafoni, ey yor, ko'p ko'rdi sendin ag'yor,

Jabru jafoni bisyor qilding manga havola.

Hajringda, ey pariro', ko'zumdin uchti uyqu,

Har kecha tongg'a tegru ishimdur ohu nola.

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki,

har taraf bor, har taraf bor, Ishqingda Bobur aylar bu nam yuz risola.

Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,

Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola. Lola, lola

Ushbu g'azal Boburning badiiy mahoratini ko'rsatib berishda alohida o'rin tutadi.

Unda Bobur tasvirning ham, tasviriy san'atning ham ustasi sifatida namoyon bo'ladi.

Dastlabki bayt yor - mahbubaning go'zalligiga tasvirlashga bag'ishlangan. Bunda shoir asosiy maqsad qilib yorning tashqi ko'rinishi - yuzini chizishga harakat qiladi.

Xating aro uzoring - sabza ichinda lola,

Ul chashmi pulxumoring loladagi g'azola.

Niyat yorning yuzini, ko'zini va o'zini tasvirlash. Labda bilinar- bilinmas

mayda tukcha bor. Ular go'yo keng daladagi o't-o'lanlarga o'xshaydi. Ularning qurshovidagi yuz esa o't - o'lanlar orasidagi lolaga qiyoslangan.

Ushbu g'azallar xalqimiz ma'naviy qadriyatlarini o'zida ifoda etgan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini o'rganish barkamol avlod qalbida milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishga ulkan hissa qo'shishi bilan ahamiyatlidir.

XULOSA:

Zahiriddin Muhammad Bobur yirik davlat arbobi bo'lishiga qaramay adabiyot va she'riyat bilan shug'ullanib kelgan. Shunga qaramay g'azallari bilan avlodlar ko'nglidan joy olib kelgan, ushbu maqolamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Lola" radifli g'azalini mumtoz adabiyotida tutgan o'rni hamda yozilish tartibi tahlilga olindi.

1. I.Karimov I.A. O'zbekistond XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari. Toshkent "O'zbekiston", 1997, 137-bet).
2. Mirahmedova, S. N. (2021). Is'xoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 770-778.
3. Nusratilloevna, M. S. (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(7), 128-130.
4. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(7), 135-137.
5. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makonga oid yondashuvlar. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
6. Mirahmedova, S. (2023). Harakatlar strategiyasi-O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqich asosi hamda jamiyatdagi o'zgarishlar. *PEDAGOG*, 6(5), 42-54.
7. Mirahmedova, S. (2023). Mafkuraviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 180-182.
8. Nusratilloevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.
9. Babayeva, S. (2022). The emergence of artistic thinking in the composition of modern Uzbek novels. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 538-544.
10. Бабаева, С. (2021). Бадий тафаккурнинг замонавий ўзбек насрида акс этиши. *Международный журнал искусство слова*, 4(2).
11. Mannapovna, J. O., Saparbayeva, D. T. (2022). The art of music is a factor of art technology and creativity. *Open Access Repository*, 8(11), 160-166.
12. Jabborova, O. M., & qizi Saparbaeva, D. T. (2022). Independent educational methodology. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 6, 30-34.
13. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makon: imkoniyat va istiqbollar. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 93-95.
14. Karimova, Z. A. (2024). Организация коррекционно-образовательной воспитательной работы с детьми. Тенденции развития образования и педагогики, 1(1), 185-194.
15. Rustamova, M. R. (2022). Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixoemotsional holatlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Конференция*, 1(1), 405-407.
16. Рахимова, И. И., Рустамова, М. Р. (2022). Тўлик бўлмаган оиланинг таърифи ва хусусиятлари. *Интеграция в мир и связь наук*, 1(1), 17-20.

17. Sultanova, Sh. S. (2022). Socio-Psychological Factors in the Formation of Feelings of Patriotism in Adolescents. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(1), 75-78.
18. Sultanova, Sh. S. (2022). The Role of Mass Media in the Formation of Patriotic Senses in Students. *International Journal of Multidisciplinary Research In Science, Engineering and Technology*, 5(5), 914-917.